

KICHIK MAKTAB YOSHIDA MULOQOTCHANLIK ORQALI AXLOQIY FAZILATLARNI RIVOJLANTIRISH

¹Baxtiyorov Rafael Marsovich, ²Botirova Dilafuz Bozorovna -Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Pedagogika va psixologiya kafedrasida o'qituvchilari

rafaelbaxtiyorov@gmail.com

³Jo'rayeva Mastona Xolboy qizi -TerDPI, Pedagogika va psixologiya mutaxassisligi 2-kurs magistranti

jorayevamastona@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda muloqotchanlikni oshirish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qituvchi va tengdoshlari bilan muloqotchanlik xususiyatlarini o'rganish, muloqotchanlik orqali axloqiy va shaxsiy fazilatlarni rivojlantirish masalalari xususida fikrlar yuritilgan.

Kalit so'zlar: Muloqotchanlik, emotsional munosabat, tortinchoqlik, gipermuloqotchan, verbal aloqa, kirishuvchan, axloqiy fazilat.

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev "Yoshlarimizni mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz".

Hozirgi kunda yurtimizda ta'lim sohasiga yuqori darajadagi islohatlar amalga oshirilmoqda. Shu jumladan, kuni-kecha davlatimiz rahbari o'tkazgan videoselektor ta'lim sohasiga, ayniqsa, maktab ta'limiga alohida e'tibor qaratildi. Uchinchi renesans davri maktab ostonasidan boshlanadi deya, ta'kidlab o'tishi ham bejizga emas. Ta'limni berishda, uni o'quvchilar qabul qilishi va o'zlarining erkin fikrlarini bayon qilishlari uchun muloqotning ahamiyati beqiyosdir. Ayniqsa, kichik maktab yoshidagi o'quvchilar maktabning ilk bosqichiga kelganda ularda

muloqot ko'nikmasi to'liq shakllanmagan bo'ladi. Shu jarayonda muvoqotchanlikni oshirish orqali ularda axloqiy fazilatlarni ham rivojlantirib borish lozim.

Yoshlarni har tomonlama yetuk tarbiyalanib kamol topishida, ma'naviy-axloqiy his-tuyg'u va hislatlarni shakllantirishda, jamiyatda erkin muloqotga kirishishda tarbiyaning ahamiyati kattadir.

Bu kabi masalaga davlatimiz rahbarining e'tiborini 2019-yil 31-dekabr Vazirlar Mahkamasining 1059-sonli "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarorining qabul qilinishida ko'rish mumkin. Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasining tarkibi VIII bob, 70 ta bo'limdan iborat bo'lib, konsepsiyaning maqsadi- yosh avlodda mustaqil va baxtli hayot uchun zarur ijtimoiy malaka hamda fazilatlarni yoshiga mos, bosqichma-bosqich shakllantirishdan iboratdir.

Muloqot serqirra jarayon sifatida psixolog tadqiqotchilar tomonidan o'rganilib kelinmoqda. Zamonaviy pedagogik amaliyot bolaning rivojlanishida kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishning mohiyati va ahamiyatini nazariy jihatdan asoslab beradigan psixologik- pedagogik tadqiqotlarga asoslanadi. O'zbekistonda psixologiya ilmining yirik vakillari E.G'.G'oziyev, o'zbek xalqining etnopsixologiyasi va bolalar tarbiyasini o'rganar ekan, uning muloqot maromi va boshqa xususiyatlari turli xalqlarnikidan ma'lum darajada tafovutlanishini, V.M.Karimova, ota-onalarga xos xususiyatlar ularning farzandlariga ham xuddi shu sifatlarni shakllanishi imkonini berishligini, B.R.Qodirov oila va iste'dodli bolalar muammolari va yechimlarini, bolalardagi ichki imkoniyatlar oilaviy muhit ta'siri ostida shakllanib borishida ota-onalarning sharoit yaratishlarini, T.M.Adizovanning ilmiy ishlarida o'zbek oilalarida o'smir bolalar shaxsining muloqotga kirishuvchanlik sifatlarini oiladagi o'zaro munosabatlarni o'rganish asosida aniqlashga muvaffaq bo'lganlar. M.Salayeva, K.X.Rahimovalar tadqiqotlarida esa, maktabgacha yoshdagi bolalardagi ma'naviy tasavvurlarni shakllantirish xususiyatlari, A.Kadirova dissertatsiya tadqiqotida ota-onalar va ularning o'z farzandlariga bo'lgan munosabati o'rganilgan. E.I.Ganeyeva

o'z ilmiy izlanishida ta'lim-tarbiya jarayonida o'smirlarda individual muomala uslubini shakllanishini o'rganish bo'yicha tadqiq qilgan. Z.P.Qlicheva tadqiqot jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining yoshi, jinsi va etnopsixologik xususiyatlarini muloqot sifatlari bilan bog'liqlikdagi dinamikasi, Sh.Bekovanning tadqiqotida maktabgacha yoshdagi bolalar kommunikativ qobiliyatlarini shakllantirishning psixologik xususiyatlari o'rganilgan.

Muloqot bola shaxsini rivojlanishining muhim omilidir. Muloqotda shaxsiy munosabatlar shakllanadi va tashqi dunyo bilan munosabatlarning tabiati ko'p jihatdan bolaning qanday fazilatlarini rivojlanishiga bog'liqdir. Muloqot har bir davrda o'ziga xos holda amalga oshiriladi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ham o'yin faoliyati o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ular endi o'yinchoqlar bilan emas, balki ko'proq harakatli, sport o'yinlarini o'ynaydilar. Ular harakatli o'yinlar o'ynashi davomida nutq orqali tevarak –atrof bilan bevosita verbal aloqa o'rnatadilar.

Psixologik-pedagogik tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, inson shaxsiyatining shakllanishi muloqotda birinchi navbatda, muhim odamlar (otalar, o'qituvchi, tengdoshlar va boshqalar) bilan bevosita muloqotda bo'ladi. Buning natijasida eng muhim xususiyatlar, axloqiy fazilatlar va dunyoqarashi o'sib boradi.

Kichik maktab davrida bolaning boshqa insonlar bilan munosabatlarida katta o'zgarishlar ro'y beradi. Bolaning muloqoti endi aniq maqsadga qaratilgan bo'ladi. Bunga sabab bir tomondan o'qituvchining faol ta'siri bo'lsa, ikkinchi tomondan o'quv jamoasining ko'rsatadigan ta'siridir.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar sinfida jamoa bilan muloqot qilish jarayonida turli darajadagi o'quvchilar bor: gipermuloqotchan (sergap) bolalardan dars holatidan qo'rqadigan: javob berishga uyaladigan, tortinchoq yoki darsga quloq solmaydigan o'quvchilar ham bo'lishi mumkin. Ularda maktab davrigacha oilada, bog'chada muloqot ko'nikmalari shakllangan bo'ladi. Masalan, bola yoshligidan oilasi davrasida salomlashish, minnatdorchilik bildirish kabi muloqot

ko'nikmalarini o'zida shakllantiradi. Ammo maktab jamoasiga kirishib ketish, o'z tengdoshlari bilan muloqot olib borish sekin amalga oshadi. Ular avvalo, birlarining hatti-xarakterini kuzatishadi, o'zaro bir-birlariga nisbatan taqlid qilishadi. Ayrim kichik maktab yoshidagi o'quvchilar maktabda, tengdoshlari oldida muloqot qilishdan uyalishadi, o'zlarini chetga tortishadi, lekin ular oilasi davrasida erkin o'z fikrini bemalol bayon qilishadi.

Boshlang'ich maktab yoshidagi muloqotning xususiyatlari kam o'rganilgan. Ayni paytda, psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich maktab yoshida kattalar bilan muloqot shaxs rivojlanishining yetakchi omillaridan biri hisoblanadi (L.I.Bojovich, V.V.Davidov, D.B.Elkonin). Bu yoshda kattalar bilan, birinchi navbatda o'qituvchi bilan muloqot, bolaning pozitsiyasi, uning boshqalar bilan munosabatlari tizimi tubdan o'zgarganda, maktabga o'tish munosabati bilan alohida ahamiyatga ega.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar va o'qituvchi o'rtasidagi muloqot ta'lim jarayoniga moslashish davridan boshlanadi. O'quvchilar o'qituvchi bilan nafaqat shaxsiy, balki maxfiy muloqot qilish istagi ham paydo bo'ladi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'qituvchi bilan olib boriladigan muloqoti o'quv faoliyati motivlariga va tengdoshlari bilan munosabatlariga ham ta'sir qiladi.

Muloqotga kirisha olmaslikning asosiy sababi- o'zini- o'zi ortiqcha yoki past baholash tufayli o'ziga va uni qurshab turgan odamlarga noto'g'ri munosabatdir. Buning oldini olish imkoniyatlari mavjud bo'lib, asosan, quyidagilarga ahamiyat berish ijobiy samara beradi:

1) hamkorlik faoliyatida, muloqotlar tizimi orqali muloqot jarayonining barcha a'zolari o'rtasida insonparvarlik munosabatlarini tashkil qilish, emotsional muhitni taqqoslash imkoniyatini yuzaga keltirish;

2) muloqotda ichki munosabatlar tizimida har bir a'zoning qulay mavqeini ta'minlashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish;

3) insonning muloqot xususiyatlari, maromi, usullari, shakllari to'g'risidagi axborotni egallashiga oid maxsus mashg'ulotlarni uyushtirish;

4) shaxslararo munosabatlar va muloqot usullariga mo'ljallangan ishbilarmonlik o'yinlari, psixodrama, trening tizimini yaratish.

Ko'pchilik kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda tortinchoqlik, uyalish, muloqotga kirisha olmaslik xususiyatlari namoyon bo'ladi. Bu jarayonda o'qituvchi o'quvchilarni tez-tez doskaga biron narsani yozib berish yoki biron narsani o'qib berish uchun chiqarsa, hamda turli rollar bo'lib berib ularni ijro ettirsa ham ulardagi uyalish, tortinish hissi yo'qolib, tortinmaydigan, o'z fikrini bemalol ayta oladigan bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilar ishonuvchan, tashqi taassurotlarga beriluvchan bo'ladilar. Buyuk alomallarimiz ta'kidlaganidek, kishining fe'l-atvori hammadan ko'ra ko'proq hayotining dastlabki yillarida tarkib topadi va unda shu davrda paydo bo'lgan sifatlar mustahkam o'rnatilib kishining ikkinchi tabiatiga aylanadi. Insonning ikkinchi tabiatida tabiiy hissiyotlarni fazilatlarini tarkib toptirish yukak axloq normalarini shakllantirish uchun butun ma'suliyat boshlang'ich sinf o'qituvchisining zimmasiga tushadi. Bolaning mazkur davrida o'qituvchining har bir gapi har bir xatti-harakati ta'sir ko'rsatish uning uchun haqiqat mezonini vazifasini bajaradi. Chunki o'quvchilar o'qituvchilarga qattiq ishonadilar. Uning fikr mulohazalariga quloq soladilar. Pedagogik nazokatida jiddiy tasvirlanadilar. Talablarga hamisha amal qiladilar. U bergan topshriqlarni bekorlik bilan bajarishga intiladilar. To'g'ri mulohaza yurtishga o'rganish noma'qul qiliqlardan tiyish va musiqa tinglashga odatlantirish ularga nimalar bilan shug'ullanish kerakligini, burch hissini tushuntirish ular bilan o'qilgan kitoblarni, ko'rilgan tomoshalarni muhokama qilish imkoniyati tug'iladi.

Kichik maktab yoshdagi o'quvchilarning axloqiy sifatlarini rivojlantirishdagi ko'zlangan maqsadga erishish uchun ularning yoshi va psixologik xususiyatlarini hisobga olish shart. Ma'lumki, o'quvchilarning psixologik xususiyatlari har xil bo'lib, bir o'quvchiga muvaffaqiyat bilan qo'llangan tarbiyaviy ta'sir vositasi boshqa biriga qo'llanilganda kutilgan natijani

bermasligi mumkin. Tarbiyaviy tadbirlar o'quvchilarga yakkama yakkam yondoshib amalga oshirilsa yaxshiroq samaraga erishilishi shubhasizdir.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni muloqotmand, muloqotchanligini rivojlantirib borsak, ularda shaxsiy hamda axloqiy sifatleri yuksalib boraveradi. Agar kichik maktab yoshidagi o'quvchilar muloqotmand bo'lsa, ular erkin fikrlay oladi. Mustaqil fikrlay olgan o'quvchi ertakni qayta hikoya qila oladi va unga o'zining ijobiy qarashlarini bildiroladi. Bunday o'quvchilar jamiyatda kattalar bilan hamda maktab jamoasida o'qituvchilar va tengdoshlari bilan ham bemalol suhbatlasha oladi. Muloqotmand o'quvchining aqliy taraqqiyoti ham oshib boraveradi, chunki u kattalar bilan bemalol suhbatlasha olyapti, fanlar yuzasida o'qituvchisiga fikrlarini mustaqil ayta olyapti, o'qish davomida yangi so'zlar o'rganib, lug'at boyligi ortib boryapti.

Xulosa qilib aytganda, kichik maktab yoshida shaxs shakllanishida muloqotchanlikning ahamiyati beqiyosdir. Maktab jamoasida o'qituvchi hamda tengdoshlari bilan muloqotga kirishuvchan, o'z fikrlarini erkin bayon qila oladigan shaxs sifatida shakllanib boradi. Bolaning muloqotga kirishuvchanligini rivojlantirish uchun ota-onasi va o'qituvchisi birgalikda harakat qilishi, hamda muloqotchanlikka kirishish orqali o'quvchilarda shaxsiy hamda axloqiy fazilatleri yuksaltirib borish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdullayeva, S., & Eshmuradov, O. (2023). ПРОФЕССИОНАЛЬНОЕ САМООПРЕДЕЛЕНИЕ И ВЫБОР ПРОФЕССИИ УЧАЩИМИСЯ В ПСИХОЛОГИЧЕСКОМ ЗНАНИИ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8395>
2. Norbosheva, M. (2022). О ТЕХНИКЕ НАЧАЛА РАЗГОВОРА С КЛИЕНТОМ В ПСИХОЛОГИЧЕСКОМ КОНСУЛЬТИРОВАНИИ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(6). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7456>

3. Норбошева М.А. Игра в жизни человека и развитии ребенка // Психология № 2, 2014 с. 72-78
4. Jabborov, X., & Eshmuradov, O. (2023). ШАРҚ МУТАФАККИРЛАРИ ИШЛАРИДА МИЛЛИЙ ТАРБИЯ МАСАЛАСИ. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8394>
5. Norbosheva, M. (2022). МУЛОҚОТ ЖАРАЁНИДА МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛА ШАХСИНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК РИВОЖЛАНИШ ХУСУСИЯТЛАРИ. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 2(6). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7459>
6. Eshmurodov, O. (2022). ЎЗБЕК ОИЛАСИ МУСТАҲКАМЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ . Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 2(6). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7449>
7. Норбошева, М. А. (2021). ОИЛАВИЙ МУНОСАБАТЛАРНИНГ ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ САМАРАДОРЛИГИГА ТАЪСИРИ: DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.26.88.050> Норбошева Мехри Ачиловна ТерДУ Педагогика институти Психология кафедраси мудир Психология фанлари номзоди, доцент. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (1-Махсус сон), 165-169.
8. Норбошева, М. О. (2021). Роль семьи и дошкольной образовательной организации в формировании личности ребёнка. *Наука и образование сегодня*, (7 (66)), 66-67.
9. Narbasheva, M. A. (2021). FOLK GAMES SERVES AS A PSYCHOSOCIAL DEVICE. *Theoretical & Applied Science*, (8), 220-225.
10. Narbasheva, M. A. (2021). The importance of pedagogical and psychological literacy of parents in preparing children for school education. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(1), 728-732.

11. НАРБАШЕВА, М. А. (2017). Из истории детских народных игр Узбекистана. *Nazli TYFEKÇI, Ph. D. Ali KORKUT, Ph. D. Hasan KARACAN, Ph. D.*, 273.
12. Norbosheva, M.A. (2022). FOLK GAMES SERVES AS A PSYCHOSOCIAL DEVICE. *World Bulletin of Social Sciences (WBSS)*, Vol. 8, March, 104-109.
12. Нарбашева, М. А.(2021). МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРНИНГ ОИЛА ҲАҚИДАГИ ТАСАВВУРЛАРИНИ ЎРГАНИШ. Педагогика ва психологияда инновациялар. (6), 94-101
- 13.Нарбашева, М. А.(2021). Оилавий муносабатларнинг таълим-тарбия самарадорлигига таъсири. Таълим ва инновацион тадқиқотлар. (maxsus son) 165-169.
- 14.Ashurova, S. (2023). SOG‘LOM PSIXOLOGIK TURMUSH TARZI TO‘G‘RISIDAGI TASAVVURLARINING SHAKLLANISHI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 3(1). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8314>
- 15.Ashurova Sh.F. A HEALTHY LIFESTYLE IN UZBEK FAMILIES FROM THE POINT OF VIEW OF ISLAM RELIGION . *Emergent: JOURNAL OF EDUCATIONAL DISCOVERIES AND LIFELONG LEARNING (EJEDL)*. 2022.<https://ejedl.academiascience.org/index.php/ejedl/article/view/369> (52-56 p)
- 16.Eshmurodov, O. (2022). ОИЛА МУСТАҲКАМЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ.
- 17.Norbosheva, M. (2023). ИГРА КАК СРЕДСТВО ОВЛАДЕНИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ФОРМИРОВАНИИ ЛИЧНОСТИ РЕБЕНКА. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8384>
18. Eshmurodov, O., & Eshboyeva, B. (2023). O‘SMIRLIK DAVRIDA JINSIY STERIOTIPLARNING YOSH XUSUSIYATLARI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8388>

19. Жабборов Хазрат Хусенович. Миллий тарбиянинг қадимий ва замонавий ижтимоий-психологик омиллари. **Таълим ва инновацион тадқиқотлар образование и инновационные. Халқаро илмий-методик журнал.** ИССЛЕДОВАНИЯ EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH № 9, 2022 сентябр. Б. 270-283 <file:///C:/Users/Hewlett%20Packard/Downloads/1636-%D0%A2%D0%B5%D0%BA%D1%81%D1%82%20%D1%81%D1%82%D0%B0%D1%82%D1%8C%D0%B8-4531-1-10-20221110.pdf>
20. Хазрат Хусенович Джабборов Социально-психологические индикаторы национального воспитания. **Science and education scientific journal** ISSN 2181-0842. Volume 3, Issue 3 . March 2022. Page 1082-1089. <https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/2883>
21. Kh.Kh. Jabborov. The study of the problem of national education by eastern thinkers. **International Journal of Pedagogics** (ISSN – 2771-2281) VOLUME 03 ISSUE 02 Pages: 14-20 SJIF IMPACT FACTOR (2021: 5. 705) (2022: 5. 705) (2023: 6. 676) OCLC – 1121105677/ Online Link:- <http://theusajournals.com/index.php/ijp/article/view/765>
22. Botirova Dilafruz Bozorovna International Journal of Mechanical Engineering. ISSN: 0974-5823. Vol. 7 No. 2 February, 2022 –В 1838-1843. <https://www.scopus.com/sourceid/21101016918/>
23. Norbosheva, M. (2022). О ТЕХНИКЕ НАЧАЛА РАЗГОВОРА С КЛИЕНТОМ В ПСИХОЛОГИЧЕСКОМ КОНСУЛЬТИРОВАНИИ. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 2(6). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7456>
24. Elamanovich, E. O. (2022). SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTORS AFFECTING THE UPBRINGING OF CHILDREN IN FAMILY RELATIONSHIPS. Science and Innovation, 1(4), 201-205.
25. Jabborov, X., & Eshmuradov, O. (2023). ШАРҚ МУТАФАККИРЛАРИ ИШЛАРИДА МИЛЛИЙ ТАРБИЯ МАСАЛАСИ. Журнал Педагогика и

- психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8394>
26. Abdullayeva, S., & Eshmuradov, O. (2023). ПРОФЕССИОНАЛЬНОЕ САМООПРЕДЕЛЕНИЕ И ВЫБОР ПРОФЕССИИ УЧАЩИМИСЯ В ПСИХОЛОГИЧЕСКОМ ЗНАНИИ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8395>
27. Norbosheva, M. (2023). ИГРА КАК СРЕДСТВО ОВЛАДЕНИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ФОРМИРОВАНИИ ЛИЧНОСТИ РЕБЕНКА. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8384>
28. Eshmurodov, O., & Eshboyeva, B. (2023). O‘SMIRLIK DAVRIDA JINSIY STERIOTIPLARNING YOSH XUSUSIYATLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8388>
29. Eshmurodov, O. (2022). ОИЛА МУСТАҲКАМЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ.
30. Eshmurodov, O., & Eshboyeva, B. (2023). O‘SMIRLIK DAVRIDA JINSIY STERIOTIPLARNING YOSH XUSUSIYATLARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 3(2).
31. Eshmurodov, O., & Fazliddinova, U. (2023). OILADAGI IJTIMOY PSIXOLOGIK MUHITNING BARQARORLIGI TA’MINLASHDA QAYNONA VA KELIN MUNOSABATLARINING O‘RNI . Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8259>
32. Eshmuradov, O., & Ismoilova, G. (2022). OILAVIY MUNOSABATLARDA BOLALAR TA’RBIYASIGA TA’SIRI ETUVCHI IJTIMOY-PSIXOLOGIK OMILLAR. *Science and innovation*, 1(B4), 201-205.